

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING LIRIK MEROSI

*Isaqova Mohlaroy**Farg'ona davlat universiteti Filologiya
va tillarni o'qitish o'zbek tili
yo'nalishi 3-kurs 23.87- guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar avlodidan bo'lgan ulug' shoh va shoir hayoti va ijodi, davlatda olib borgan ijtimoy-siyosiy ishlari haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga maqolaning asosiy maqsadi Boburning lirik merosini: g'azallari, ruboiylarini o'rganishdan iborat. Bobur she'riyatining mavzu doirasi, undagi inson ruhiyati tasviri, vatanga muhabbat, ishqiy lirika, tasavvufiy qarashlar hamda badiiy mahorati yoritilgan. Shoirning lirik ijodidagi o'ziga xos uslub, qalb kechinmalari va turkiy she'riyat ravnaqiga qo'shgan hissasi ilmiy adabiyotlar hamda asar matnlari asosida tadqiq etiladi. Shuningdek, Bobur lirikasining o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bilan aloqasi va o'ziga xos yangiliklari ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'z: shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur, Bobur lirikasi, g'azal janri, ruboiy, vatan sog'inchi motivi, she'riy uslub, badiiy tasvir vositalari.

Hayot yo'li: Bobur (taxallusi) to'liq ismi - Zahiriddin Muhammad Bobur. U 1483-yil 14-fevralda dunyoga kelgan o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, "Boburnoma" asari muallifi, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli shoir va boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy, ya'ni shoh bo'lgan. Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni, Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Bobur ota tomondan Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzo naslidan bo'lsa, ona tomonidan Tug'luq Temurxonning o'g'li Xizr Xo'jaxon naslidan edi uning yettinchi avlodi edi. Boburning onasi o'qimishli bo'lgan va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi. Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar

halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etdi. Ammo taqdir taqozosi bilan o‘z ona yurtini tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. 1526-yili Hindistonni zabt etib Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Shoir sifatidagi ijodi: Boburning o‘z guvohligiga ko‘ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; „Ul fursatlarda birorikkirar bayt aytur edim“, deb yozadi u. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g‘azali va „Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq.

Lirik merosi: Boburning lirik merosi 1519-yili "Qobul devoni"ga 1528-29-yillarda "Hind devoni"ga jamlangan. To‘liq devon tuzgani haqida ma’lumot bor. She’rlarining umumiy soni 400 dan ortadi. Shundan 119 g‘azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit’a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan. She’rlarini mavzu jihatidan oshiqona, ta’limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Undan bizgacha yetib kelgan 4000 misra’ga yaqin she’rning ko‘pchiligi o‘zbek tilida bo‘lib, tojik tilida ham yozgan she’rlari ham bor. Bobur lirikasida g‘azal, ruboiy va masnaviy janrlari katta o‘rin tutadi. Bulardan tashqari u, tuyuq, muammo, qit’a va fardlar (mustaqil baytlar) kabi lirikaning turli janrlarida ham she’rlar yozgan.

Bobur she’riyatining mavzu doirasi:

Ishq-muhabbat: Yor vasli, hijron azobi, visol quvonchlari.

Go‘zallik: Inson go‘zalligi, tabiat manzaralari (bahor, bog‘).

Falsafiy-axloqiy: Adolat, insonparvarlik, vafo, yomonlikning jazosi haqidagi hikmatlar ("Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur").

Vatan sog‘inch: Hindistonda yashasa ham, o‘z yurtiga muhabbat va sog‘inch hislari (masalan, "O‘z yurtini qoyib Hind sori yuzlandim, Yo Rab netayin, bu ne yuz qarolig‘ bo‘ldi").

Shoirning lirik merosida insoniy kechinmalar, muhabbat iztiroblari, vatandan ayro tushgan qalbning dardi, hayot falsafasi, vaqt va bebaqo dunyo haqidagi mushohadalar o‘ziga xos tarzda aks etadi.

Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari,

She’r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog‘ir ichmakning o‘zga holi bor,

Kinga bu nash’a muyassar bo‘lsa bordur davlati.

Ishq dardin chekib har kimki topsa vasli yor,

Ul zamon bo‘lg‘ay unut, yuz yilg‘i hijron shiddati,

kishining ta’bi birla holati.

Gar bu uch ishni topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortiq bo‘lmag‘ay, Bobir, jahonning ishrati.

Shoir bu g‘azalida hayotning asl lazzati nimada ekanligini obrazli misralarda juda yaxshi ta‘riflaydi. Ya‘ni shoir «yoz fasli»ning fazilatini, «ishq dardi»ni chekib, so‘ngra «yor vasli»ga yetishning kayfiyatini, yaxshi do‘stlar bilan suhbat qurishning foydasi ko‘pligini, bunday suhbatlarda she‘rxonlik qilish qiziqarli va ma‘nili bo‘lishini ifodalaydi. She‘r o‘quvchida emotsional taassurot tug‘diradi.

Sen gulsenu, men haqir bulbuldurman,
Sen shu‘lasenu, ul shu‘laga men quldurman.

Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.

Bunda yorni gulga monand qo‘yadi, o‘zini uning huzurida qul – tobe ekanligini bayon qilib, ajoyib dilbar obrazini madh qiladi. Uning uchun yor shu qadar yuksakki, u elga podsho bo‘lsa ham, yor oldida zabun va quldir. Shoir yor madhini kuylab uning husn-jamoli va hulq-atvorini ta‘riflar ekan, ajoyib iboralardan o‘rinli foydalanadi, bejirim va shirin o‘xshatishlar orqali go‘zal obrazlar yaratadi.

Qadimni firoq mehnati yo qildi,
Ko‘nglum g'am-u anduh o‘tig'a yoqildi.

Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi, yo qildi.

Ushbu tuyuq "yo qildi" so'zlari tajnisiga asoslangan va ma'nosi shunday: "Tik qaddimni firoq mehnati yo qilidi (egdi), ko'nglim esa g'am-u anduh gulhanida yoqildi (yondi). Men bu holimni sabo (tong shabadasi)ga aytgan edim, ammo bilmayman, ey gul (yor), u xabarimni senga sharh qilmadimi yo qilidi?"

Xulosa: Bobur lirikasining asosiy xususiyati shoirning o‘z hayoti, kechinmalari va ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Shoir o‘z asarlarida inson taqdiri, vaqtning o‘tkinchiligi, baxt va armon, muhabbat va sadoqat kabi mavzularni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etadi. Uning she‘rlarida turkiy tilning nafis imkoniyatlari keng qo‘llanilgan bo‘lib, Bobur o‘z ijodi bilan turkiy she‘riyatning rang-barang va jozibali bo‘lishiga xizmat qilgan. Xulosa qilib aytganda, Bobir lirikasi o‘zining g‘oyaviy-badiiy jihatdan puxtaligi bilan o‘zbek adabiyoti tarixi xazinasiga qimmatbaho hissa bo‘lib qo‘shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari.
2. S.Azimjonova "Zahiriddin Muhammad Bobur" Toshkent-1995
3. Saburova Umida Kuanishboy qizi "Bobur lirikasida" o'ziga xos yo'nalishlar"
4. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchili va madaniyati rivojida tutgan o'rni - O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar milliy bazasi.